



XALILA DÁWLETNAZAROV SHÍGARMALARINDA KÓRKEMLEW QURALLARINIŇ QOLLANILIWI

Allayar Darmenov

Ájiniyaz atındaǵı NMPI Qaraqalpaq ádebiyatı kafedrası stajyor-
oqıtıwshısı

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7194629>

ARTICLE INFO

Received: 01th October 2022

Accepted: 08st October 2022

Online: 13rd October 2022

KEY WORDS

metafora, metonimiya,
sinekdoxa, anafora, epifora,
tasviriy usluv

ABSTRACT

Ushbu maqolada, Xalila Dawletnazarov lirikasidagi manoni har tamonlama yoritib berishda keng turda qollanilgan badiiy ifoda va tasviriy uslublar qollanilish mahorati. Lirik mazmunning turli xil badiiy uslublar yordamida yoritilishi. Ularning yordamida badiiy mazmunni yanada chuqurroq tushinishga va koz oldida tasvirlanishiga zamin yaratish haqida fikr yuritilgan.

Xalila Davletnazarov she'riyati haqiqiy badiiy ifodalarning tadqiqot obyekti bo'la oladigan she'riyat. Shoir asarlarida boshqalarda uncha uchramaydigan badiiy formalar, tasviriy uslublarni ko'plab uchratamiz. Uda qoraqalpoq adabiy tilining haqiqiy marjonlari bor. Shoirning tug'ilib o'sgan yeri ham shu Qoraqalpog'istonning shimoliy tumanlariga darvoza bo'lgan Xalqabod atrofi. Bu yerlar qoraqalpoq adabiy tilining eng bir sof, toza holda saqlangan joylari. Shoirning adabiyotimizga kirib kelgan ilk yillaridan-oq uning o'ziga xos tili ko'zga ko'rina boshlaydi.

Awır kesher onıń jolları júdá,
Arzır deydi jandı áylewge pidá,
Biraz bálent párwaz gáppler biyhuwda,
Dos bolıw hámmeniń qolınan kelmes.
("Dos bolıw hámmeniń qolınan kelmes")
Adabiyotimizga shu kabi o'tkir so'zlari, asl so'z marjonlari bilan kirib kelgan shoir haligacha adabiyotimizning gullab-yashnashiga o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

Shoir asarlarida badiiy ifoda uslublari asosiy o'rinlarni egallaydi. Umuman she'riyatta obraz yashashda asosiy element bu badiiy ifoda? Yaniy troplar hisoblanadi. X. Davletnazarov she'riyatida biz buni yanayam aniq ko'ramiz. Masalan, uning quyidagi she'rida qiyosiy forma mohirona beriladi:

Zárúr kún nurınday, suwday, hawaday,
Aylanıp shıǵırday, qaynap nawaday,
Hár demi, hár qanday dártke dawaday,
Tınıshlıq, Tınıshlıq, Janım Tınıshlıq!
(Tınıshlıq, tınıshlıq, janım, tınıshlıq!)

Badiiy ifoda qurollarining bajaradigan xizmati bir-biriga juda yaqin. Shunday bo'lsa da ularni bir-biridan ajiratib olsa bo'ladi/ chunki bundan boshqa da sinekdoxa, metonimiya, metaforalarning o'zi ham aynan qiyoslashdan kelib chiqadi.

"Qaraqalpaq ırǵaǵı" she'rida shoir shunday yozadi.

...Tawday gúnirener, kóldey shaypalar,

Búrkit párwaz Qaraqalpaq ırǵaǵı...

("Qaraqalpaq ırǵaǵı...")



Metafora. Ikki narsa yoki hodisaning qandayda bir o'xshashlik tomoniga asoslanib, uning birisiga tegishli belgining ko'chma ma'noda ikkinchi bir narsa bilan bog'lab aytish metofofa deyiladi. Metafora ushbu jihatdan qiyoslashga juda o'xshash, yaqin biroq qiyoslashda qiyoslanadigan narsa, harakat va uning nimaga qiyoslanadiganligini ko'rsatuvchi ikkinchi so'z qator aytiladigan bo'lsa, metaforada faqat uning ikkinchisi ya'ni nima bilan qiyoslab turganligigina ko'rsatiladi. Ushbu tomonidan metaforalarda obrazlilik kuchli bo'lib keladi.

Shoir she'rlarida eng ko'p qo'llaniladigan tasvirlash vositalarining biri bu metaforalar hisoblanadi. Metaforalar azaldan nazmda obraz yasashda eng unumli qo'llaniluvchi troplardan biri. Shoir "Jadidshiler" she'rida shunday yozadi:

Kókiireginde jángan ar-namıs otı,
Bilim menen bermek boylarğa qızıw.
Bar qastı-ğárezi xalıqlar matalğan,
Sawatsızlıq, — degen kisendi buzıw.
Xalila Davletnazarov asarlari tili metaforalar
rga judayam boy. Misol uchun, "Anam aytar
edi" she'rida shoir shunday qo'llanadi:

Aytar: erip ketti hásiret muzları, Iğbal
otlarınıń gúrlep jánganın... Jer júzinde
ilahiyda- nur darır, Biroq, Joqlar anam,
joqlar ketken TARLANÍN!!! tasirli chiqishiga
xizmat qilgan.

2. Metonimiya.

Qoraqalpoq tilidagi so'z ma'nosi awısıwı usullarining biri metonomiya bo'lib hisoblanadi. Metonimiya narsa yoki hodisaning nomi bilan ikkinchi bir narsa yoki hodisani ichki yoki tashqi bog'lanishiga ko'ra qayta nomlash orqali beriladigan so'z ma'nosining awısıw usuli. Bu usul badiiy asar tiliga ham xos bo'lib keladi.

Metonimiya hodisasi ham, asosan, badiiy asarlarda ko'proq uchraydi. X.Davletnazarov asarlari tilida ham metonimiya belgili bir stillik maqsadlarda qo'llaniladi. Masalan:

Júregiń saz-sáwbet penen kónıllıes,
Oynaqı hawazıń shadlıqqa únles,
Yosh eli ózińdek páriydi bilmes,
Qosıqlar ishinde qosıq Gúlara.
("Gúlara")

Shoirning "Bu xalıq ushın!..." nomli she'rida biz juda ko'p metonimiyalarni uchratamiz. Shoir el-yurt uchun kerak bo'lgan insonlarni ularning oliy sifatleri bo'yicha birma-bir ta'riflaydi. Daslab buni dono, botirlardan boshlaydi.

Bu xalıq ushın danalar kerek,
Altın menen qaplawğa sózin.
Atı-jóni atalar erek,
Tentene etip qoyadı ózin.

Bul xalıq ushın batırlar dárkar,
Dáw dónse de ayılın jıymas.
Sońıra dóhmet azabın tartar,
Tuwıp ósken eline sıymas.
Sinekdoxa.

Sinekdoxa tropning bir turi, metonimiyaga yaqin. Uni ayrim taqdiqotchilar etonimiyaning bir turi sifatida ham qaraydi. Sinekdoxa butunning o'rniga qismi yoki qismning o'rniga butuni, birlik son o'rniga ko'plik son yoki ko'plik son o'rniga birlik son qo'llaniladi. X.Davletnazarov asarlarida ham sinekdoxalar bor. Masalan:

"Qaraqalpaqtıń joq óziniń obalı,
Kimligin umıtar, bilmes tobanı..."

Kókiireginde dúzip ullı jobanı,
Mıń ólip, mıń tuwıp edi Japaqov,
-deydi shoir Nawrız Japaqov nomli she'rida. Bu yerda qoraqalpoq degan so'z bilan butun bir xalqni, ikki millionlik



odamni tasvirlamoqda. Ya'ni, ko'plikning o'rniga birlikni qo'llangan.

İnversiya. İnversiya (lotincha inveriso- almashtirish) - gapga ayriqsha kórkemlik (ekspressivlik) berish maqsadida gap a'zolarining to'g'ri o'rin tartibining o'zgartilib, qanday da bir a'zoning almashib kelishi.

Muhabbat haqqında biraz jırlarım,
Jır emes, ol meniń júrek sırlarım,
Alınar waq keldi gúller qırmanın,
Jaslıgım, sen meni taslap barasań!
Buning uchinchi qatoridagi so'zlar degan to'g'ri o'rin tartibta "Gúller qırmanın alınar waq keldi" bo'ladi.

Anafora. Anafora (yunoncha anaphoro – yuqoriga chiqarish) - gapning boshida bir xil so'zlarning yoki konstruktsiyalarning qaytalanib kelishi orqali yasaladigan kuchaytuvchi shakl.

Kesh túsindim usı ráwiyatqa,
Kesh turıp, kesh qalıp biraz nárseden.
Ómirim jartısı ótken uyqıda,
Endi ókinsih júregimdi párshele!...

Shoir she'rlarida anaforalar kamroq uchraydi. Shu sababli boshqa badiiy vositalariga ko'proq to'xtalishni maqul ko'rdik.

Epifora

Epifora (yunoncha epi –keyin, phoros – keluvchi) - gapning oxirida bir xil so'zlar yoki so'z dizbekleriniń qaytalanishidan yasalgan shakl.

"Dúnyada jaqsılar qalmağan shıǵar",
Haqlıqtı nákaslıq jalmağan shıǵar?"
Qoy-á, "Jıńıl dese demeyik qırǵın",
Asa kóp hesh nárese bolmağan shıǵar?
(tórtliklerinen)

Xulosa qilib aytganda, Qoraqalpog'iston xalq shoiri Xalila Davletnazarov she'riyatida badiiy vositalar, troplar, stilistik shakllar bilan birga maqollar, frazeologizmlar ham juda mahorat bilan beriladi. Bu vositalar shoir she'riyatini cho'qqilarga chiqarish bilan birga hozirgi qoraqalpoq tili ilmining lingvistika sohasi uchun taqdiqot obykti sifatida ham o'rin baholi egallaydi

References:

1. Дәўлетназаров Х. Хат. Нөкис. Қарақалпақстан. 1980.
2. Дәўлетназаров Х. Әлўидағ, муҳаббат, әлўидағ!.... Нөкис. Арал журналы 1993.
3. Дәўлетназаров Х. Хош қал, жаслығым. Нөкис. Қарақалпақстан. 1993.
4. Бердимуратов Е. Көркем әдебият стилинің тийкарғы өзгешеликтери. «Әмиўдәрья», 1973,